Ismailova Nilufar Sabitdjanovna СРАВНЕНИЕ МЕТОДОВ ФОРМОВКИ ТРУБ СРЕДНЕГО И БОЛЬШОГО ДИАМЕТРА	1010
Юсупов А.А., Райимкулов С.Х. TURIZM XIZMATLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDAGI RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASH.....	1015
Qodirov Farrux Ergash o'g'li, Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li DAVLAT GRANTLARI TANLOVLARINI SHAKLLANTIRISHDA KO'P BOSQICHLI IJTIMOY MASLAHATLASHUV VA RAQAMLI JAMOATCHILIK ISHTIROKI MEXANIZMINING AHAMIYATI.....	1020
Xasanov Jahongir Botir o'g'li PAXTA XOM ASHYOSINI CHUQUR QAYTA ISHLASH ORQALI QO'SHIMCHA QIYMAT YARATISH.....	1025
Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li, Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARI	1030
Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ОЦЕНКИ И АНАЛИЗА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ «ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ»	1036
Хайдарова Дилдора Жахонгир кизи ТЕОРИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ИСЛАМСКОГО СТРАХОВАНИЯ И ЕГО СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ НА ПРИМЕРЕ БЛИЖНЕВОСТОЧНЫХ СТРАН.....	1040
Гаффоров Шухрат Насриевич BANKLARDA ICHKI NAZORAT TIZIMI SAMARADORLIGINING MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	1047
Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1054
Normamatova Sitara Nozim qizi, Raxmanov Mexridin Sindarovich	



JAHON SAVDO TASHKILOTI TALABLARI DOIRASIDA MAMLAKATIMIZ KORXONALARINING XALQARO RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH XUSUSIYATLARI.....	1059
Masharipova Manzura Alimbayevna	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI....	1067
Dusmatov Begmuxammad Olimjonovich, Mirzaahmedov Mirziyo Ulug'bek o'g'li	
XO'JALIK YURITUVCHI BIZNES SUBYEKTLARI BIZNES MUHITI RIVOJLANISHIGA DAVLATNING TA'SIRI..	1072
Xazratov Abror Panjiyevich, Muratkulov Xumoyun Dilshodovich	
YASHIL XIZMATLAR SOHASINING MOHIYATI, IJTIMOIIY-IQTISODIY FUNKSIYASI VA BARQAROR RIVOJLANISHDAGI O'RNI	1077
Y.M. Xalikov	
ASALARICHILIK XO'JALIKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING XUSUSIYATLARI	1085
Ishturdiyev Hasan Abdigapparovich	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	1091
Мухторов М. Н., Каримова А. М.	
«HR BUSINESS PARTNER» КАК ИНСТРУМЕНТ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА	1098
Дониерова Фотимабону Алишер кизи	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI UCHUN REAL VAQT REJIMIDA DINAMIK RISK-PROFILGA ASOSLANGAN KREDIT LAYOQATINI BAHOLASHNING ADAPTIV MODELI (DRP-KREDIT MODEL)...	1109
Hamroyeva Sabina Ismoil qizi, Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
QISHLOQ HUDUDLARIDA AGROBIZNES TUZILMALARINI RIVOJLANTIRISH BORASIDAGI XORIJIY TAJRIBA VA UNDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	1115
Yoqubjonov Ibrohim G'olibjon o'g'li	
INFLYASIYA VA BUDJET XARAJATLARI: ASOSIY BOG'LIQLIKLAR.....	1118
Izbosarov Bobur Baxriddinovich, Umirov Sherzod Baxriddinovich	
KICHIK BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASHDA SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1124
Bakirov Kobiljon Mamatyusupovich	
АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ.....	1128
Уктамов Альберт Жасурович Bakirov Kobiljon Mamatyusupovich	
КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ КОМПЛЕКСНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ: СНИЖЕНИЕ РИСКОВ, УКРЕПЛЕНИЕ КАПИТАЛЬНОЙ БАЗЫ И ЛИБЕРАЛИЗАЦИЯ АКТИВОВ.....	1135
Эгамова Махфурат Эсановна	
ФАЗООБРАЗОВАНИЕ И ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА МАГНИЕВОГО ОКСИХЛОРИДНОГО ЦЕМЕНТА, СИНТЕЗИРОВАННОГО ИЗ КАУСТИЧЕСКОГО ДОЛОМИТА.....	1141
Абылова Амина, Сайпов Абат, Бекбосынова Рысгул, Абылов Женис	
HUDUDLARDA MADANIY TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING BOSHQARUV USULLARI	1150
Shohruzbek Ruziyev	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA SIRKULYAR IQTISODIYOT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	1156
Xalikulova Gulzada Tojimuratovna, Kuziyeva Nargiza Ramazanovna	
MARKAZIY OSIYODA SUN'IY INTELLEKTNING KICHIK VA O'RTA BIZNES SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	1162
Kodirova Samira Kamol qizi	



MEHNAT SHARTNOMASI ASOSIDA FAOLIYAT YURITUVCHI QO'RIQLASH DEPARTAMENTI TIZIMIDAGI IDORAVIY HARBIYLASHTIRILGAN QO'RIQLASH VA IDORAVIY QOROVULLIK BO'LINMALARI ISHCHI-XIZMATCHILARIGA DAVLAT IJTIMOIIY SUG'URTASINI TATBIQ ETISHNING HUQUQIY-IQTISODIY JIHATLARI	1169
Salimbayev Mirsohibjon Mirsodiq o'g'li	
RAQOBATBARDOSHLIK NAZARIYALARINING EVOLYUTSIYASI VA HUDUDIIY USTUNLIK LARNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI	1175
Sattorov Quvonchbek Shoxzamonovich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA ISTIQBOLLARI	1181
Kazakova Zulayho, Saidazamova Nilufar, Isroilov Shohruh	
YASHIL LOGISTIKA VA TRANSPORT TIZIMI TRANSFORMATSIYASI ORQALI BARQAROR MAKROIQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ILMIY-USLUBIIY ASOSLARI.....	1186
Jalolova Madina Shopolat qizi	
ПОВЫШЕНИЕ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ ДИВИДЕНДНОЙ ПОЛИТИКИ В КОМПАНИЯХ УЗБЕКИСТАНА	1192
Шермухамедов Акмал Комилжонович	
KICHIK BIZNESDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIY SAMARASI.....	1198
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich, Muhammadjonova Iroda Bahodir qizi	
KIYIM DIZAYNIDA ESTETIK VA FUNKSIONALLIK UYG'UNLIGI.....	1202
Ergasheva Rashida Abdug'aniyevna	
K-SURE JANUBIIY KOREYA EKSPORTINI QO'LLAB-QUVVATLASH BO'YICHA ASOSIIY DAVLAT MUASSASASI SIFATIDA.....	1205
Umarov Xasan Sunnatullaevich	
MAXSUS IQTISODIY ZONALARDA RAQAMLI SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL MODELII	1210
To'rayeva Nafisa Odiljonovna	
SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY O'SISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1215
Astanayev Kulmaxammat Sanayevich	
RESURSGA ASOSLANGAN YONDASHUV ASOSIDA SANOAT KORXONALARI RAQOBAT USTUNLIGINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI	1221
Jalolov Abbasxon Ravshanxon o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KUZATUV KENGASHI FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIIY MEXANIZMLARI.....	1228
Ashurov Furkatjon Shuxratovich	
NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA O'ZINI O'ZI BAND QILISHNING AHAMIYATI	1233
Sabirov Mirza Qilichbayevich	
Zararli dasturiy ta'minotni aniqlash va tahlil qilishda neyron tarmoqlardan foydalanish imkoniyatlari.....	1238
Nuratdinov Xushnid Begzadovich, Erejepov Kewlimjay Kaymatdinovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA INVESTITSIIYA FAOLIYATINING ZAMONAVIIY HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	1244
No'monjonova Muazzam Mahbubjon qizi	
BUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDIT METODOLOGIYASINI SHAKLLANTIRUVCHI TAMOIYILLAR VA YONDASHUVLAR.....	1250
Saitmuratov Saitmuarat Masharip o'g'li	
ASINXRON MOTORLARNING NOSIMMETRIK REJIMLARINI NAZORAT QILISH VA BOSHQARISH TIZIMLARI UCHUN EKSPERIMENTAL TADQIQOTLAR METODIKASINI ISHLAB CHIQISH.....	1255
Tojimurodov Dilshodbek Dilmurodjon o'g'li	



SOLIQ ORGANLARI VA SOLIQ TO'LOVCHILAR O'RTASIDAGI NIZOLARNI SUDGACHA HAL ETISH TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	1263
Solihova Xumora Xasan qizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KUZATUV KENGASHI FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	1269
Ashurov Furkatjon Shuxratovich	
TIJORAT BANKLARI AKTIV VA PASSIVLARI MUVOFIQLIGI VA UNI BOSHQARISH	1274
Saidov Doniyor Abdullayevich	
AI-BASED AUTOMATED ASSESSMENT SYSTEMS AND THEIR ROLE IN EDUCATION QUALITY MONITORING: THE CASE OF UZBEKISTAN.....	1280
Majidova Yulduz, Janayev Bunyod, Choriyev Anvar, Mamatqulov Mavlon	
MAHALLIY BYUDJETLARDA SOLIQLARNI UNDIRISHNI OPTIMALLASHTIRISH MASALALARI	1286
To'xsanov Qudratillo Nozimovich	
O'ZBEKISTONDA BOG'DORCHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA XUSUSIYATLARI.....	1294
Murtazayev Olim, Norbekov Fazliddin Iskandar o'g'li	
SOLIQ NIZOLARINI MA'MURIY TARTIBDA KO'RIB CHIQISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1301
Solihova Xumora Xasan qizi	
KRIPTOAKTIVLAR VA MBRVNING MONETAR SIYOSAT TRANSMISSIYA MEXANIZMIGA TA'SIRI	1305
R.I. Rashidov, S.B.Eshmurodova	
"SMART TOURISM FAMILY ENTREPRENEURSHIP SYSTEM" MODELINING SINERGETIK SAMARADORLIGI VA TURIZM SOHASIDA OILAVIY TADBIRKORLIKNI INVESTITSİYALAR BILAN TA'MINLASHDAGI IMKONIYATLARI.....	1310
Pardayeva Ozoda Mamayunusovna	
KORPORATIV KONFLIKTLARNI TARTIBGA SOLISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARI.....	1318
Xolikova Saboxat Abdukarim qizi	
LONDON XALQARO MOLIYA MARKAZINING RIVOJLANISH OMILLARI VA RAQOBAT USTUNLIKLARI	1325
Alimardonov Elshod Dilshodovich	
XARID TURIZMI VA TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: O'ZBEKISTON VA QO'SHNI DAVLATLAR MISOLIDA.....	1332
Akmal Bakhromov	
AEROTROPOLIS KONSEPSIYASI ASOSIDA SAMARQAND XALQARO AEROPORTINI MINTAQAVIY TURISTIK HUB SIFATIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	1338
Alisher Suyunov	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1345
Baxriddinov Sharofiddin	
SUV RESURLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ HISOBOTINI AVTOMATIK SHAKLLANTIRISHNING IQTISODIY VA IJTIMOY AHAMIYATI	1352
Boymurotov Sodiq	
ESG-РЕЙТИНГОВЫЙ АНАЛИЗ ДОХОДНОСТИ АКЦИЙ КОМПАНИЙ: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ. 1356	
И. Р. Бердикулова	
МОДЕЛИРОВАНИЕ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ В ЦЕЛЯХ ОПТИМИЗАЦИИ ОПЕРАЦИОННЫХ РАСХОДОВ ДЛЯ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕАЛЬНОГО СЕКТОРА ЭКОНОМИКИ.....	1360
Джуманов А.А.	
FERMER XO'JALIKLARIDA YER-SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	1370
Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna	



ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОПТИМИЗАЦИИ УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМ КАПИТАЛОМ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РОСТА ПРЕДПРИЯТИЯ.....	1376
Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna	
TIJORAT BANKLARIDA OMONATLAR HAJMINI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH VA ISTIQBOLLI PROGNOZLASH.....	1382
Raximov Shoxrux Furqatovich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1388
Xushvaqto'v Shuhrat Abduraufovich	
MOLIYAVIY QAROR QABUL QILISHDA ZAMONAVIY USULLAR VA TEXNOLOGIYALAR	1393
Begalov Sherzod Maxsutaliyevich	
O'ZBEKISTONDA MAJBURIY SUG'URTANING AHAMIYATI	1400
F. Sh. Hamrayeva	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISH: DAVLAT VA NODAVLAT OTM LARNING QIYOSIY TAHLILI	1405
Bozorov Alisher Ro'zimurodovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK DOIRASIDAGI LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	1411
Sh. Qurbonova	
HUDUDIIY AGROSANOAT MAJMUASIDA INVESTITSION EHTIYOJLARNI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH (SIRDARYO VILOYATI MISOLIDA).....	1419
Maxamadiyev Turg'unbay Jumabayevich	



HUDUDIY AGROSANOAT MAJMUASIDA INVESTITSION EHTIYOJLARNI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH (SIRDARYO VILOYATI MISOLIDA)

Maxamadiyev Turg'unbay Jumabayevich

Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: t.mahamadiyev88@gmail.com

ORCID: 0009-0004-6809-918

Annotatsiya. Maqolada Sirdaryo viloyati agrosanoat majmuasining 2010–2025-yillardagi empirik ma'lumotlari asosida qishloq xo'jaligida investitsion ehtiyojlarni ekonometrik modellash va kelgusi 2026–2030-yillar uchun rivojlanish ssenariylari tahlil qilingan. Kobb–Duglas ishlab chiqarish funksiyasining modifikatsiyalangan ko'p omilli regressiya modeli (Multiple Linear Regression) orqali xorijiy investitsiyalar, bank kreditlari, differensial subsidiyalari, innovatsion qamrov hamda tranzaksion xarajatlarning yalpi mahsulot o'sishiga ta'siri miqdoriy baholangan. STATA va EViews dasturiy majmualarida olingan natijalar asosida hududiy qishloq xo'jaligi barqaror o'sishini ta'minlashga qaratilgan optimistik, realistik va inersion ssenariylar ishlab chiqilgan hamda ularning makroiqtisodiy samaradorligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, investitsion ehtiyoj, ko'p omilli regressiya, Kobb–Duglas funksiyasi, differensial subsidiyalari, tranzaksion xarajatlari, ssenariyli prognoz.

Аннотация. В статье на основе эмпирических данных агропромышленного комплекса Сырдарьинской области за 2010–2025 годы проведено эконометрическое моделирование инвестиционных потребностей в сельском хозяйстве и проанализированы сценарии развития на предстоящие 2026–2030 годы. С помощью модифицированной модели множественной регрессии (Multiple Linear Regression) производственной функции Кобба–Дугласа дана количественная оценка влияния иностранных инвестиций, банковских кредитов, дифференциальных субсидий, инновационного охвата и транзакционных издержек на рост валового продукта. На основе результатов, полученных в программных комплексах STATA и EViews, разработаны оптимистический, реалистический и инерционный сценарии, направленные на обеспечение устойчивого роста регионального сельского хозяйства, а также обоснована их макроэкономическая эффективность.

Ключевые слова: сельское хозяйство, инвестиционная потребность, множественная регрессия, функция Кобба–Дугласа, дифференциальные субсидии, транзакционные издержки, сценарный прогноз.

Abstract. Based on the empirical data of the agro-industrial complex of the Syrdarya region for 2010–2025, the article conducts econometric modeling of investment needs in agriculture and analyzes development scenarios for the upcoming years 2026–2030. Using a modified multiple linear regression model of the Cobb–Douglas production function, the impact of foreign investments, bank loans, differential subsidies, innovation coverage, and transaction costs on gross product growth was quantitatively evaluated. Based on the results obtained in the STATA and EViews software packages, optimistic, realistic, and inertial scenarios aimed at ensuring the sustainable growth of regional agriculture were developed, and their macroeconomic effectiveness was substantiated.

Keywords: agriculture, investment need, multiple regression, Cobb–Douglas function, differential subsidies, transaction costs, scenario forecast.

KIRISH

Shuningdek, institutsional iqtisodiyot namoyandalari R. Kouz (R. Coase) va O. Uilyamson (O. Williamson) ta'limotlariga asosan, iqtisodiyotda, ayniqsa, agrar tarmoqda axborot asimmetriyasi, kutilmagan tavakkalchiliklar (opportunizm) va shartnomaviy munosabatlardagi to'siqlar natijasida yuzaga keluvchi "tranzaksion xarajatlari" ishlab chiqarish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil hisoblanadi. Ushbu nazariy qonuniyatlardan kelib chiqib, davlat tomonidan qo'llaniladigan moliyaviy qo'llab-quvvatlash va subsidiyalash mexanizmlari an'anaviy "tenglashtiruvchi" xarakterdan voz kechishi hamda Jahon savdo tashkilotining (JST) "Yashil quti" (Green Box) talablariga mos ravishda faqat ekologik barqarorlik, resurs tejamkorlik va yakuniy natijaga asoslangan bo'lishi talab etiladi.

Aynan shu nazariy bazaga tayangan holda, milliy tarmoqda ishlab chiqilgan yangi institutsional mexanizmlarning — xususan, venchur va xorijiy kapitalga asoslangan “Agro-R&D markazi” davlat-xususiy sheriklik (DXSh) modeli hamda subsidiyalashning differensial tizimining amaliy natijadorligini ilmiy jihatdan tasdiqlash tadqiqotning muhim ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur mexanizmlarning hududiy iqtisodiyotga taʼsirini ekonometrik modellash tirish obyektiv reallikni aks ettirib, investitsion ehtiyojlarni toʻgʻri baholash hamda kelgusida kiritiladigan sarmoyalarning makroiqtisodiy qaytimini (ROI) maqbullashtirish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning bosh maqsadi investitsion samaradorlikni oshirishda anʼanaviy moliya resurslari (bank kreditlari, umumiy subsidiyalar) va yangi institutsional omillarning (xorijiy XTTL, differensial subsidiyalar va minimal tranzaksiya xarajatlar) oʻzaro mutanosibligini hamda yakuniy hosildorlikka taʼsirini miqdoriy baholashdan iborat. Ushbu ekonometrik prognozlashtirish va ssenariyli baholash jarayoni bevosita Sirdaryo viloyati agrosanoat majmuasining 2010–2025-yillardagi empirik maʼlumotlari negizida amalga oshirildi va kelgusi 2026–2030-yillar uchun koʻp omilli regressiya tahlili (Multiple Linear Regression) orqali prognoz qilindi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq xoʻjaligida investitsion ehtiyojlarni baholash masalasi iqtisodiy oʻsish, ishlab chiqarish samaradorligi va institutsional muhit oʻrtasidagi bogʻliqlikni kompleks oʻrganishni talab qiladi. Ilmiy adabiyotlarda agrar ishlab chiqarish natijalariga kapital, mehnat, texnologik yangilanish va moliyaviy resurslar taʼsirini baholashda Kobb–Duglas ishlab chiqarish funksiyasi keng qoʻllaniladi. Shu bilan birga, institutsional iqtisodiyot vakillari tomonidan ilgari surilgan tranzaksiya xarajatlar, axborot asimmetriyasi va shartnomaviy munosabatlar haqidagi qarashlar agrar tarmoqda investitsiya samaradorligini faqat moliyaviy resurslar hajmi bilan emas, balki ularni jalb etish va foydalanish shartlari bilan ham izohlash zarurligini koʻrsatadi. Zamonaviy tadqiqotlarda bank kreditlari, xorijiy investitsiyalar, innovatsion texnologiyalar va maqsadli subsidiyalar qishloq xoʻjaligi oʻsishining muhim omillari sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan, Sirdaryo viloyati agrosanoat majmuasida investitsion ehtiyojlarni ekonometrik modellash tirish ushbu nazariy yondashuvlarni hududiy darajadagi amaliy maʼlumotlar asosida baholash imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Hududiy qishloq xoʻjaligida yaratiladigan yalpi mahsulot (endogen oʻzgaruvchi) va unga taʼsir etuvchi investitsion omillar (ekzogen oʻzgaruvchilar) oʻrtasidagi miqdoriy bogʻliqlikni aniqlash maqsadida Kobb–Duglas (Cobb–Douglas) ishlab chiqarish funksiyasining modifikatsiyalangan ekonometrik modelidan foydalanildi. Modeldagi tranzaksiya xarajatlar va innovatsion subsidiyalar omillarini hisobga olgan holda, chiziqlashtirilgan koʻp omilli regressiya tenglamasi quyidagi koʻrinishga keltirildi:

$$\ln(Y) = \beta_0 + \beta_1 \ln(X_1) + \beta_2 \ln(X_2) + \beta_3 \ln(X_3) + \beta_4 \ln(X_4) + \beta_5 \ln(X_5) + \varepsilon \quad (1)$$

Bu yerda oʻzgaruvchilarning iqtisodiy mazmuni quyidagicha belgilandi:

Y – Sirdaryo viloyatida qishloq xoʻjaligi yalpi mahsuloti hajmi (mlrd soʻm);

β_0 – ozod had (boshlangʻich iqtisodiy baza / konstanta);

X_1 – davlat-xususiy sheriklik hamda venchur asosida jalb qilingan xorijiy va xususiy investitsiyalar hajmi (mlrd soʻm);

X_2 – tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi (mlrd soʻm);

X_3 – yakuniy natijaga asoslangan differensial davlat subsidiyalari hajmi (mlrd soʻm);

X_4 – AKIS va R&D markazlari orqali joriy etilgan ilgʻor texnologiyalar qamrovi (gektar yoki foiz hisobida);

X_5 – axborot izlash va shartnomaviy munosabatlar bilan bogʻliq boʻlgan tranzaksiya xarajatlar hajmi (mlrd soʻm);

ε – qoldiq (tasodifiy) xatoliklar, yaʼni iqlim oʻzgarishi va tashqi shoklar taʼsiri.

Model parametrlari STATA va EViews dasturiy majmualari yordamida eng kichik kvadratlar usuli (OLS) orqali baholandi. Shuningdek, modelning oʻzgaruvchilari oʻrtasida multikollinearlik muammosini tekshirish maqsadida Pirson (Pearson) korrelyatsiya matritsasi qurildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oʻtkazilgan koʻp omilli regressiya tahlili natijasida determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0,914$ ni tashkil etdi. Bu Sirdaryo viloyati qishloq xoʻjaligi yalpi mahsuloti hajmining oʻzgarishi 91,4 foizga bevosita biz tanlagan beshta omilga bogʻliqligini, qolgan 8,6 foiz taʼsir esa tasodifiy va stoxastik omillar (iqlim, ob-havo) hisobiga toʻgʻri kelishini anglatadi. Barcha mustaqil oʻzgaruvchilar boʻyicha p-qiyamat $p < 0,05$ dan kichik boʻlib, modelning yuqori ishonchlilik darajasini tasdiqlaydi.



1-jadval.

Sirdaryo viloyati qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti hajmiga investitsion va institutsional omillarning ta'sirini baholovchi ko'p omilli regressiya tahlili natijalari¹

O'zgaruvchilar (Mustaqil omillar)	Koeffitsiyentlar (β)	t-statistika	P-qiymat (Prob.)	Ehtimollik darajasi
Xorijiy va DXSh investitsiyalari (X1)	0.315	3.980	0.001	$p < 0.01$
Tijorat banklari kreditlari (X2)	0.245	3.450	0.004	$p < 0.01$
Differensial subsidiyalar (X3)	0.270	3.720	0.002	$p < 0.01$
Innovatsion qamrov darajasi (X4)	0.195	3.050	0.010	$p = 0.01$
Tranzaksion xarajatlar hajmi (X5)	-0.140	-2.680	0.022	$p < 0.05$
Ozod had / Konstanta (C)	4.120	4.850	0.000	$p < 0.001$

Olingan regressiya koeffitsiyentlarining iqtisodiy elastikligi tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy va venchur DXSh investitsiyalari hajmining 1 foizga oshishi mintaqa yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotini 0,315 foizga o'stiradi va eng yuqori ta'sir kuchiga ega omil hisoblanadi. Differensial subsidiyalar ($\beta = 0,270$) va tijorat banklari kreditlari ($\beta = 0,245$) ham barqaror ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Muhim institutsional qonuniyat sifatida tranzaksion xarajatlar koeffitsiyenti manfiy ($\beta = -0,140$) qiymat oldi, ya'ni byurokratik to'siqlarning har 1 foizga ortishi yalpi mahsulot hajmini 0,140 foizga kamaytiradi.

2-jadval

Sirdaryo viloyati agrosanoat majmuasining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini rivojlantirishning ssenariyli prognozlari (2026–2030 yillar uchun)²

Prognoz qilinuvchi ko'rsatkichlar	2025 (Baza)	I (Inersion)	II (Realistik)	III (Optimistik)	Natija
Yalpi mahsulot (mlrd. so'm)	28 500	34 200	41 500	52 800	2 barobar o'sish
Xorijiy investitsiyalar (mln. \$)	125.0	140.0	220.0	450.0	Sarmoya oqimi oshadi
Bank kreditlari (mlrd. so'm)	4 200	7 500	6 000	5 100	Qarz yuki pasayadi
Differensial mexanizm ulushi (%)	15%	20%	55%	85%	Yashil qutiga o'tish
Differensial subsidiyalar (mlrd. so'm)	65.0	105.0	280.0	520.0	Maqsadli yo'naltiriladi
Tejaladigan mablag' (mlrd. so'm)	-	-	120.0	350.0	Mablag'lar tejaladi
1 gektar uchun daromad (mln. so'm)	22.5	25.8	32.4	45.6	Rentabellik oshadi
Innovatsion texnologiyalar qamrovi (%)	25%	35%	60%	85%	Ekologik barqarorlik

Model ishonchligini baholash va o'zgaruvchilar o'rtasidagi chiziqli bog'liqlik zichligini aniqlash maqsadida Pirson korrelyatsiya matritsasi tuzildi (3.10-jadval). Natijalar barcha mustaqil o'zgaruvchilar yalpi mahsulot bilan yuqori darajadagi korrelyatsion aloqaga ega ekanligini tasdiqladi ($p < 0,01$).

1 Manba: Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan EViews dasturiy majmuasida hisoblandi.

2 Manba: Ekonometrik modellash va EViews dasturi natijalari asosida muallif hisob-kitoblari.

3-jadval

Sirdaryo viloyati qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti va iqtisodiy-institutsional omillar o'rtasidagi korrelyatsion tahlil natijalari³

O'zgaruvchilar	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)	(6)
(1) Yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti	1.000	-	-	-	-	-
(2) Xorijiy va DXSh investitsiyalari	0.864	1.000	-	-	-	-
(3) Tijorat banklari kredit portfeli	0.682	0.351	1.000	-	-	-
(4) Differensial davlat subsidiyalari	0.841	0.524	0.415	1.000	-	-
(5) Innovatsion texnologiyalar	0.795	0.612	0.308	0.583	1.000	-
(6) Tranzaksion xarajatlar	-0.773	-0.655	-0.254	-0.558	-0.721	1.000

Korrelyatsion va regressiyaviy tahlil natijalari bir qancha fundamental makroiqtisodiy bog'liqliklarni ochib beradi. Birinchidan, eng kuchli ijobiy chiziqli bog'liqlik xorijiy va DXSh investitsiyalari hamda yalpi mahsulot o'rtasida aniqlandi ($r = 0,864$). Bu agrosanoat majmuasida ishlab chiqarish drayveri sifatida "Agro-R&D markazi" modelining ahamiyati yuqori ekanligini tasdiqlaydi. Ikkinchidan, bank kreditlarining ($r = 0,682$, $\beta = 0,245$) ta'siri xorijiy sarmoyalarga qaraganda pastroq ekanligi tijorat kreditlarining foiz stavkalari, ya'ni qarz yuki yuqoriligi bilan izohlanadi. Yuqori foizli kreditlar ishlab chiqarishni harakatlantiradi, biroq klasterlarning sof foydasi va rentabelligini qisman cheklaydi.

Uchinchidan, mustaqil omillar orasidagi multikollinearlik tekshirilganda, eng yuqori ichki korrelyatsiya tranzaksion xarajatlar va innovatsiyalar o'rtasida ($r = -0,721$) kuzatildi. Bu iqtisodiy jihatdan izohlanadi: ma'muriy tartib-taomillar va axborot qidirish xarajatlari qisqargan sari innovatsiyalar qamrovi kengayish imkoniyatiga ega bo'ladi. Barcha ekzogen omillaro aloqalar 0,80 parametridan past bo'lgani bois modelda multikollinearlik xavfi mavjud emas.

Ssenariylar tahliliga ko'ra, III (optimistik) muallif ssenariysi joriy etilsa, investitsion muhitning barqarorligi oshadi: xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi 2025-yildagi 125 mln dollardan 2030-yilda 450 mln dollargacha, ya'ni 3,6 barobar oshadi. Nisbatan qulay shartlardagi xorijiy kapital hisobiga klasterlarning bank kreditlariga bog'liqlik darajasi 75 foizdan 35 foizgacha pasayadi va ularning moliyaviy barqarorligi oshadi. Subsidiyalarni "Yashil quti" tamoyili asosida natijadorlikka bog'lash mahalliy budjetdan yiliga 350 mlrd so'm mablag'ni tejash imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sirdaryo viloyati agrosanoat majmuasi misolida o'tkazilgan ekonometrik modellashtirish qishloq xo'jaligini boshqarishda an'anaviy ekstensiv yo'l — qimmat tijorat kreditlariga tayanish va kafolatlangan tenglashtiruvchi subsidiyalari tarqatish samaradorligi cheklanganligini ekonometrik natijalar asosida ko'rsatdi. Kobb–Duglas modifikatsiyalangan modeliga asoslangan tahlilimiz mintaq qishloq xo'jaligida makroiqtisodiy o'sishni ta'minlash va korxonalarining to'lov qobiliyatini barqarorlashtirish uchun tarkibiy takomillashtirish zarurligi ko'rsatmoqda.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan va amaliyotga tavsiya etilayotgan optimistik (III) ssenariy nafaqat mintaqaviy, balki respublika miqyosida agrar sohani isloh qilishning mantiqiy davomi bo'lib xizmat qiladi. Viloyat agrosanoat majmuasining kelgusi rivojlanishi moliya bozoridagi yuqori foizli bank kreditlariga bog'liqlikni bosqichma-bosqich kamaytirib, uning o'rnini axborot asimmetriyasi va tranzaksion xarajatlari minimallashtirilgan institutsional muhit — "Agro-R&D" asosidagi xorijiy sarmoyalar hamda differensial ("Yashil quti" talablariga mos) subsidiyalari bilan to'ldirishga bevosita bog'liq.

Olingan ilmiy va empirik natijalarga asoslanib, tarmoqni rivojlantirish bo'yicha quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, hukumat va mahalliy budjet xarajatlarini maqbullashtirish, opportunistik xatti-harakatlar xavfini kamaytirish maqsadida subsidiyalarni innovatsion suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilgan va yuqori qo'shimcha qiymat yaratgan subyektlarga aniq mezonlar asosida yo'naltirish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, qishloq xo'jaligi korxonalari va klasterlarining to'lov qobiliyatini mustahkamlash, surunkali kreditorlik qarzдорligi hamda kelgusidagi to'lovga qobiliyatsizlik (bankrotlik) xavflarining oldini olish maqsadida ularning moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, xususan, tijorat kreditlari o'rniga venchur va DXSh asosidagi xorijiy investitsiyalarga tayanish iqtisodiy jihatdan asoslangan yo'nalish hisoblanadi.

Yakuniy natijada, taklif etilayotgan ushbu yondashuv davlat uchun budjetni tejash, xorijiy investorlar uchun xatarlarni kamaytirish va klasterlar uchun yuqori daromad hamda moliyaviy sog'lomlashtirishni ta'minlovchi "Win-

3 Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida STATA dasturida hisoblandi.



Win-Win” (“uch karra yutuq”) modelini oʻzida ifoda etadi. Bu mexanizm Oʻzbekiston agrosanoat majmuasining xalqaro raqobatbardoshligini oshirish bilan birga, mintaqada barqaror ekologik-iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi. Sirdaryo viloyati boʻyicha qishloq xoʻjaligi statistik koʻrsatkichlari va hududiy statistik maʼlumotlar bazasi. 2010–2025-yillar maʼlumotlari.
2. Maxamadiyev T.J. The Relationship Between Investment and Economic Growth in Agriculture: An Empirical Analysis // American Journal of Economics and Business Management. – 2026. – Vol. 9, Issue 4. – pp. 341–346. DOI: 10.31150/ajebm.v9i4.4789.
3. Cobb C.W., Douglas P.H. A Theory of Production // American Economic Review. – 1928. – Vol. 18, No. 1. – pp. 139–165.
4. Coase R.H. The Nature of the Firm // Economica. – 1937. – Vol. 4, No. 16. – pp. 386–405.
5. Williamson O.E. The Economic Institutions of Capitalism: Firms, Markets, Relational Contracting. – New York: Free Press, 1985.
6. Wooldridge J.M. Introductory Econometrics: A Modern Approach. – 7th ed. – Boston: Cengage Learning, 2020.
7. World Trade Organization. Agreement on Agriculture. Annex 2: Domestic Support — The Basis for Exemption from the Reduction Commitments. – Geneva: WTO, 1995.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100